

**IQTISODIY XAVFSIZLIK TAHIDLARINI O'RGANISHGA  
METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA  
ILMIY TADQIQOT METODLARI**

---

*Yusupov Shavkat Ergash o'g'li  
Toshkent Arxitektura-Qurilish  
Universiteti magistratura talabasi*

**Annotatsiya**

Iqtisodiy tahlilning metodi - korxonadagi xo'jalik jarayonlari va boshqa faoliyat turlarining yuzaga kelishi, o'zgarishi hamda rivojlanishini dialektik yondashuv usulida o'rganishdir. Ijtimoiy- iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida korxonaning xo'jalik hamda boshqa faoliyat turlarini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishi sabablarini tadqiq qilish, ularning o'zaro bog'liqliklarini aniqlash hamda hisob-kitob qilish iqtisodiy tahlil fani metodining o'ziga xos jihatlaridir.

**Kalit so'zlar:** metod, iqtisodiy tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert bahosi, statistik tahlil, PEST tahlili, SWOT tahlil, metodologik yondashuv.

**Abstract**

The method of economic analysis is the study of the emergence, change and development of economic processes and other types of activity in an enterprise using a dialectical approach. The use of a system of indicators characterizing the economic and other types of activity of an enterprise in order to increase socio-economic efficiency, the study of the causes of changes in these indicators, the identification and calculation of their interrelationships are the specific aspects of the method of economic analysis.

**Keywords:** method, economic analysis, systematic analysis, comparative analysis, expert assessment, statistical analysis, PEST analysis, SWOT analysis, methodological approach.

**Аннотация**

Метод экономического анализа — это изучение возникновения, изменения и развития экономических процессов и других видов деятельности на предприятии с использованием диалектического подхода. Использование системы показателей, характеризующих экономическую и другие виды деятельности предприятия в целях повышения социально-экономической эффективности, изучение причин изменения этих показателей, выявление и расчет их взаимосвязей являются специфическими аспектами метода экономического анализа.

**Ключевые слова:** метод, экономический анализ, системный анализ, сравнительный анализ, экспертная оценка, статистический анализ, PEST-анализ, SWOT-анализ, методический подход.

Har bir fanning metodi - obyektiv borliqning, tabiat va jamiyatning rivojlanishini o'rganishga qanday yondoshish lozimligini ko'rsatadi. Fanning o'z obyekti yoki predmetini o'rganish usullari, vositalari uning metodini tavsiflaydi. Iqtisodiy tahlil ham o'zining mustaqil usullariga ega.

Metod - grekcha «methodos» so'zidan olingan bo'lib nazariya, ta'limot va amaliyotni o'rganishdagi yondashuv yo'llaridir. Keng ma'noda metod deganda tabiat va jamiyatdagi jarayonlar, predmetlar hamda voqeliklarni tadqiq etishning o'zaro bog'langan yalpi usullari, tamoyillari, shuningdek, haqiqatni bilishning vositalari, uslublari va yo'llari tushuniladi.

Korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosi iqtisodiyot fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qurilish sohasida iqtisodiy xavflar turi va miqdori keng qamrovli bo'lib, ularni ilmiy asosda baholash zarurati ortib bormoqda. Shu boisdan, tadqiqotda qo'llaniladigan metodologiyalar va tahlil vositalarining to'g'ri tanlanishi – tadqiqot natijalarining ishonchliligi va aniqligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilishda ilmiy tadqiqot metodlari muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar tahdidlarni aniqlash, ularni baholash, tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Qurilish korxonalari misolida, xavfsizlik tahdidlari kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, qurilish sohasida tahlil metodlarini to'g'ri tanlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, tahdidlarga qarshi barqaror strategiyalarni ishlab chiqish mumkin.


Iqtisodiy tahlilda quyidagi asosiy metodlar keng qo'llaniladi<sup>1</sup>:

Metod nomi	Ta'rifi	Qo'llanish sohasi
<b>Tizimli tahlil</b>	Tahdid va omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi	Ichki va tashqi xavflar o'rtasidagi munosabat
<b>Qiyosiy tahlil</b>	Bir necha korxonalarni yoki yillar kesimida ma'lumotlarni taqqoslash	Holatni baholash va pozitsiyani aniqlash
<b>Statistik tahlil</b>	Ma'lumotlar asosida dinamika va trendlarni aniqlash	Moliyaviy va bozor ko'rsatkichlarini tahlil qilish

<sup>1</sup> Юнусов С. «Иқтисодий таҳлил методлари», 2023.

<b>SWOT tahlili</b>	Kuchli va zaif jihatlar, imkoniyat va xavflarni aniqlash	Strategik rejalashtirishda
<b>Ekspert bahosi</b>	Mutahassislar fikri asosida sifat ko'rsatkichlarini baholash	Nomoddiy omillarni aniqlash

So'rovnomaiga asoslangan holda, qurilish sohasida tahlil metodlarining qo'llanish darajasi quyidagicha baholangan:



**Diagramma.** Tahlil metodlarining qo'llanish darajasi (%da)

Ushbu holatdan ko'rindaniki, tahlil metodlari ichida eng ko'p foydalaniladigan statistik tahlil metodi hisoblanar ekan. Chunki bu metodda aniq moliyaviy ko'rsatkichlar va statistik ma'lumotlar asosida korxonaning holati tahlil qilinadi.

**Amaliy misol:** "Korxona 1" va "Korxona 2" korxonalari misolida tahlil.

Quyidagi jadvalda ikki qurilish kompaniyasida (nomlari axborot xavfsizligi nuqtai-nazardan shartli ravishda o'zgartirilgan) tahlil metodlarining qo'llanilishi va natijalari berilgan:

Ko'rsatkichlar	"Korxona 1" AJ	"Korxona 2" MCHJ
Ichki tahdidlar soni	8	5
Tashqi tahdidlar soni	12	9
Tahlilda qo'llangan metodlar soni	4	3
Ekspert bahosi	7.5 / 10	6.8 / 10

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, qurilish korxonalarida xavflarni to‘g‘ri baholash va ularni boshqarishda ilmiy metodologiyalar muhim ahamiyatga ega. Agar tahlil chuqur va tizimli olib borilsa, xavflar o‘z vaqtida aniqlanadi va ularga qarshi choralar ko‘rish samarador bo‘ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni ham unutmaslik kerak. Chunki ularni tahlil qilish va bartaraf etishda ham samarali foydalaniladigan metodlar, ular bilan o‘zaro bog’liq bo‘lgan fanlar mavjud.

Tahdidlarni tahlil qilishda ular quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi:

<b>Tahdid turi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Tahlil mezonlari</b>
<b>Ichki tahdidlar</b>	Moliyaviy yo‘qotishlar, samaradorlik pastligi	Rentabellik, qarzdorlik, ishlab chiqarish
<b>Tashqi tahdidlar</b>	Raqobatchilar bosimi, siyosiy noaniqlik	Bozor ulushi, narxlar volatilligi, qonunchilik o‘zgarishi
<b>Texnologik tahdidlar</b>	Eskirgan uskunalar, IT tizimlarining yetishmasligi	Texnik xizmat muddati, sarmoya hajmi
<b>Ijtimoiy tahdidlar</b>	Kadrlar oqimi, ish haqi muammolari	Ishchilar almashinuvi, ijtimoiy barqarorlik

Iqtisodiy xavfsizlik tahdidlarini tahlil qilish metodologiyasi — bu korxonaning barqaror iqtisodiy faoliyatini buzishga olib keladigan ichki va tashqi omillarni aniqlash, tasniflash, baholash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar yig‘indisidir. Ushbu yondashuvlar korxona boshqaruv tizimida strategik qarorlar qabul qilishda markaziy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi tahdidlarni aniqlash metodologiyasi quyidagi asosiy fanlar va nazariy yo‘nalishlarga tayanadi:

- Tizimli yondashuv nazariyasi (Bertalanfi)
- Risk-menejment nazariyasi
- Klassik va institutsional iqtisodiyot nazariyalari
- Mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy tahlil metodlari
- Monitoring va prognozlash texnologiyalari

Sistemali yondashuv nazariyasi bo‘yicha har bir korxona o‘zaro bog’liq bo‘lgan tarkibiy qismlar tizimidan iborat bo‘lib, iqtisodiy xavfsizlikni buzuvchi tahdidlar ham bu qismlarga biriktirilgan holda yuzaga chiqadi. Shuning uchun tahlil qilishda korxonaning moliyaviy, ishlab chiqarish, tashkiliy va tashqi muhit komponentlari alohida o‘rganiladi.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Bertalanfi L. (1968). *General System Theory*.

Risk-menejment nazariyasiga ko‘ra, har qanday tahdid tahlil qilinishi, darajasi baholanishi va unga javob choralar ishlab chiqilishi kerak. Tahlil jarayonida quyidagi bosqichlar tavsiya etiladi:

- Tahdidni identifikatsiya qilish (masalan, inflyatsiya, resurs yetishmovchiligi)
- Tahdidlarning ehtimoli va zarar darajasini baholash (matriksa asosida)
- Ularning korxona faoliyatiga ta’sirini prognoz qilish
- Javob strategiyalarini ishlab chiqish

Bozordagi noma'lumliklar sharoitida (pandemiya, geosiyosiy tangliklar, iqlim o‘zgarishi) monitoring orqali tahdidlarning ehtimoliy rivojlanish yo‘llari aniqlanadi. Prognozlash yondashuvi kelajakdagi xavf-xatarlarni oldindan ko‘rib, strategik tayyorlikni oshirishga xizmat qiladi.

### **Qurilish sohasi uchun maxsus metodologik yondashuvlar**

Qurilish korxonalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, tahdidlarni aniqlashda quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

- a) Loyiha asosida risk baholash (Project-based risk assessment)<sup>3</sup>-qurilish sohasi loyihibiy faoliyatga asoslanganligi sababli, har bir loyiha uchun alohida risklar mavjud: texnik xatolar, muddati cho‘zilish, byudjet oshib ketish, mijozning to‘lovga qodir emasligi.
- b) Hududiy xavf tahlili-O‘zbekiston sharoitida regionlar kesimida quyidagilar e’tiborga olinadi:
  - Toshkent shahrida yer narxlarining yuqoriligi (xarajat tahdidi)
  - Qoraqalpog‘iston va Sirdaryo viloyatlarida infratuzilmaning sustligi (logistik xavf)
- c) Qonunchilik xavflari-so‘nggi yillarda qurilish sohasidagi normativ-huquqiy o‘zgarishlar (soliq imtiyozlarining o‘zgarishi, yer ajratish tartibi) yuqori noaniqlik manbai hisoblanadi. Shu bois, huquqiy monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish — muhim metodologik choradir.

### **Iqtisodiy tahdidlarni baholashda qo‘llaniladigan maxsus metodlar**

Qurilish sohasida iqtisodiy xavf-xatarlarni tahlil qilishda turli maxsus metodlar ishlataladi. Ulardan asosiyлари:

#### **A) SWOT tahlili**

- S (Strengths) – kuchli tomonlar  
 W (Weaknesses) – zaif tomonlar  
 O (Opportunities) – imkoniyatlar  
 T (Threats) – tahdidlar

Bu usul orqali korxonaning ichki salohiyati va tashqi tahdidlar o‘rtasidagi muvozanat baholanadi.

<sup>3</sup> PMI (Project Management Institute), *PMBOK Guide* – 7th Edition

**B) PEST tahlili**

P – Political (siyosiy)

E – Economic (iqtisodiy)

S – Social (ijtimoiy)

T – Technological (texnologik)

PEST tahlili orqali tashqi muhit tahdidlari va imkoniyatlari sistemali o‘rganiladi.

Qurilish sohasida siyosiy barqarorlik, valyuta kursining o‘zgarishi, qurilish materiallarining narxi, aholining uy-joyga talab darajasi muhim o‘rin tutadi.

**C) Delphi usuli<sup>4</sup>**

Eng yaxshi mutaxassislar fikrlari asosida xavflar darajasi va ehtimolini baholash usuli bo‘lib, anonim so‘rov va bosqichma-bosqich tahlil asosida amalga oshiriladi.

Tahdidlarni o‘lchashda esa matematik modellardan, ko‘rsatkichlar indekslari (Qarzdorlik darajasi, Rentabellik) va sifatli ekspert baholaridan foydalaniladi.

**Matematik modellash va ekspert bahosi usullari<sup>5</sup>**

Metodologik yondashuvlar ichida iqtisodiy-matematik modellash muhim o‘rin tutadi. Masalan, Xavf indeksi (HI – Hazard Index) quyidagicha aniqlanadi:

$$HI = \sum_{i=1}^n P_i C_i$$

Bu yerda:

$P_i$  – tahdid yuz berishi ehtimoli

$C_i$  – tahdidning iqtisodiy zarari

Misol: “Orient Qurilish” MCHJda qurilish materiallari narxining oshishi ehtimoli  $P=0.7$ , zarar  $C=500$  mln so‘m bo’lsa:  $HI=0.7*500=350$  mln so‘m

**Iqtisodiy xavfsizlik tahlillarida umumiy ilmiy yondashuvlar**

Iqtisodiy xavf-xatarlarni aniqlash va tahlil qilishda asosiy metodologik yondashuvlar quyidagi ilmiy tamoyillarga asoslanadi:

Tizimli yondashuv – korxonaning barcha funksiyalari va tashqi muhitini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish orqali tahdidlarni xolis baholash. Bu yondashuvda korxonaning ichki va tashqi muvozanati tahlil qilinadi.<sup>6</sup>

Integral yondashuv – turli soha va fanlarning bilimlari (iqtisodiyot, huquq, boshqaruv, psixologiya)ni birlashtirgan holda tahdidlarga umumiy kompleks tahlil berish. Masalan, moliyaviy tahdidlar huquqiy norma va bozor o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq.

<sup>4</sup> Turoff, M., & Linstone, H. (2002). The Delphi Method: Techniques and Applications.

<sup>5</sup> Abduqahhorov B. «Iqtisodiy tahlil va xavf modellari», TDIU, 2022.

<sup>6</sup> Berdimuhamedov T. «Korxona xavfsizligini ta’minlashda tizimli tahlil metodlari», Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, №2, 2021.

Komparativ tahlil (taqqoslama usuli) – qurilish korxonasini boshqa o‘xshash sohadagi korxonalar bilan solishtirish orqali xavflar darajasini aniqlash. Bu usul, ayniqsa, raqobatbardoshlik tahlilida samarali.

### **Xulosa**

Metodologik yondashuvlar iqtisodiy xavf-xatarlarni samarali aniqlash, ularni baholash va oldini olish choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, qurilish korxonalarida:

- SWOT va PEST tahlillari bilan tashqi va ichki muhitdagi omillar sistemali o‘rganilishi;
- Delphi va ekspert baholari bilan aniq xulosalarga kelish;
- Matematik modellar orqali xavflarni aniq miqdorda baholash boshqaruv qarorlarini to‘g‘ri qabul qilishga zamin yaratadi.

Qurilish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni aniqlash uchun kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi. O‘zbekiston sharoitida statistik tahlil, ekspert so‘rovnomalari va SWOT usuli orqali aniqlangan tahdidlar asosida samarali xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abduqahhorov B. «Iqtisodiy tahlil va xavf modellari», TDIU, 2022.
2. Berdimuhamedov T. «Korxona xavfsizligini ta’minlashda tizimli tahlil metodlari», Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, №2, 2021.
3. Turoff, M., & Linstone, H. (2002). The Delphi Method: Techniques and Applications.
4. Bertalanfi L. (1968). General System Theory.
5. PMI (Project Management Institute), PMBOK Guide – 7th Edition
6. Yunusov S. «Iqtisodiy tahlil metodlari», 2023.